

## PERSONAJLAR NUTQI XUSUSIYATLARINING TARJIMADA BERILISHI

### A.L.Qozonchining “Üvey anne”(O‘gay ona) asari misolida

*Quvonchbek JURAQULOV - TDSHU 1- kurs magistranti,  
Toshkent, O‘zbekiston. Tel: +998939946461;  
Email: [juraqulovquvonchbekg@mail.com](mailto:juraqulovquvonchbekg@mail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola personaj nutqi va uning xususiyatlarining tarjima matnida aks etishi muammosiga bag‘ishlangan. Bunda tadqiqot obyekti sifatida Ahmat Lutfiy Qozonchining “Üvey anne”(O‘gay ona) asaridagi asar qahramonlari nutqining tarjimasi xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlari:** personaj, personaj nutqi, tarjima, asliyat, tarjima matni,

**Kirish.** Personajlar nutqini shakllantirishda eng birinchi bo‘lib muallifning uslubi ahamiyat kasb etadi. Chunki yozuvchi personajlar nutqiga qanchalik ko‘p e’tibor bersa, uning yozgan asari shu qadar qiymatli bo‘ladi. Personajlar nutqida uning qaysi hududda yashashi, savotxonlik darajasi, kasbi, yoshi, shevasi va boshqalarini bevosita bildirish mumkin. Bunday asarlarni tarjima qilish jarayonida muallif uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri bo‘lgan personajlar nutqini imkon qadar asliga muvofiq tarjima qilish kerak. “Muallif uslubi deganda biror bir muallifning muayyan bir davrda yaratgan asarlarida doim uchrab turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy unsurlar majmuasi tushuniladi”<sup>1</sup> personajlar nutqi yozuvchi uslubining asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi.

Personajlarning o‘z nutqi bo‘lib, u adabiy tildan farqlanadi, ular qiyin so‘zlarni ba’zan buzib talaffuz qiladilar – asl nusxada o‘z aksini topgan bu so‘zlashuv uslubi tarjimada ham imkon qadar asliga xos berilishi kerak<sup>2</sup>.

V.Xinkisning fikricha, asl nusxadagi sheva elementlarini tarjima qilinayotgan tildagi aynan sheva so‘zlari bilan berish shart emas, uni so‘zlarning o‘zaro birikishi – sintaksis yordamida ham ifodalasa bo‘ladi. Tarjimashunos M.Loriening fikri ham shunday bo‘lib, shevalarni tarjima qilishda ona tilidagi biror shevadan foydalanmay, uni sintaksis va ma’lum intonatsiya yordamida ham aks ettirish mumkin<sup>3</sup>.

S.Olimov ham F.Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani tarjimasida Toshkent shevasiga xos “shag‘am”, “ha-de”, “talinka”, “o‘zi” o‘rnida “o‘zligi” so‘zlarini qo‘llagani uchun I.G‘afurovni tanqid qilgan edi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Salomov G’. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 60-bet

<sup>2</sup>Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – T.: 2014. 114-bet

<sup>3</sup> Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do’stlik quroli (Maqolalar to`plami). – Toshkent, 2017. 33–34-betlar.

<sup>4</sup> Olimov S. Ikkinchchi tashrif // Tarjima san’ati. 5-kitob. 251-bet.

Bugungi kunda o‘zbek kitobxonlari tomonidan asarlari sevib o‘qilyotgan Ahmat Lutfiy Qozonchi 1936-yil 1-avgustda Chorumda dunyoga kelgan. Islom tarixchisi va romanchisi sifatida tanilgan. 1991-yilda Islom tarixi bo‘yicha dotsent, 1999-yilda esa professor unvoni oladi. Adibning bir qancha asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Shular jumlasiga “O‘gay ona”, “Qaynona”, “So‘nggi to‘fon”, “Saodat asri qissalari”, “Hazrati Umar ibn Xattob”, “Abu Bakir Siddiq” va “Rasulullohga nega ishonmadilar?” kiradi.

**Maqsad va vazifalar:** Mazkur tadqiqot ishining maqsadi, muallif uslubiga xos xususiyatlardan biri personajlar nutqining o‘ziga xos xususiyatlari tarjimada berilish darajasini aniqlash. A.L.Qozonchining “Üvey anne” (*O‘gay ona*) asari va tarjimasi matnlarida ko‘rib chiqiladi. Ishning vazifalari quyidagilar:

- A.L.Qozonchi uslubiga xos personajlar nutqi xususiyatlarini aniqlash;
- dialoglar vositasida jonli nutqning tarjimada berilishi;

**Usullar:** Muallif uslubini tarjimada saqlab qolishini aniqlashda A.L.Qozonchining “Üvey anne” (*O‘gay ona*) asarining asl nusxasi va o‘zbekcha tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

**Tadqiqot manbasi:** A.L.Qozonchining “*O‘gay ona*” asarining asli va o‘zbekcha tarjimasi hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti:** Tadqiqotning obyekti sifatida A.L.Qozonchining “*O‘gay ona*” asaridagi personajlar nutqi xos bo‘lgan xususiyatlar: dialoglardagi jumla qurilishi, qahramonlar nutqi, ifoda shakli kabilarning tarjimada saqlanib qolganligini aniqlashdir.

**Natija va mulohazalar:** A.L.Qozonchining “*O‘gay ona*” asari maishiy asar hisoblanadi. Tarjimada personajlar nutqi tarjimasi ham juda muhim jihatlardan biri hisoblanadai, chunki asar qahramonlarining haqiqiy tasvirini chizadigan xususiyatdir. Bunga misol tariqasida asar qahramoni ziyoli qatlam vakili bo‘lsa, uning nutqida ko‘p odamlar ishlatmaydigan so‘zlar ishlatilish, asar qahramonining ma’lum bir hududdan ekanligini bildirish uchun o‘scha hudud shevasidan foydalanish, asar qahramonining yosh bola ekanligini bildirish uchun gap qurulishida va aytishda qiyinchilik to‘g‘diradigan so‘zlarda ishlatishda qiynalishi kabilarni ifodalasa, asarning qiymati oshadi. Abdulla Qahhor bu xususiyatga katta e’tibor qaratgan, hatto asarning kulminatsion nuqtasini personajlar nutqida ifodalagan: bemor asarida Sotiboldining qizining *Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...* gapi hisoblanadi. Shuning uchun ham qahramon nutqining tarjimada to‘g‘ri berilishi muhimdir.

Asardagi ba’zi personajlar nutqi tarjimasini ko‘rib chiqamiz.

*Darılırim yoksa. Bir daha bana abla deme öyleyse. (Kazancı A. Üvey anne.15)*

*Agar olmasang, boshqa opa dema. (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 12)*

Tarjima ma'no jihatdan to'g'ri, lekin bu gapga qo'shimcha ma'no yuklangan. Bu gapni quyidagicha tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo'lar edi: *xafa bo'laman, agar. Bundan keyin menga opa deme unaqada.*

*Ben senin ablan değil miyim İsmail? Her zaman gel yanına. (Kazancı A. Üvey anne. 16)*

*Men senga opa bo'lmay, kimman? Yonimga tez-tez kelib tur. (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 13)*

Bu gapni qauyidagicha tarjima qilgandan maqsadga muvofiq bo'lar edi: *men sening opang emasmanmi, İsmoil? Tez-tez kelib tur yonimga.* Chunki jonli nutqda gapning oxiriga o'tkazilgan so'z gap urg'usini oladi va gapning asosiy ma'nosi o'sha so'zga qaratiladi.

*Ne yaptın aşağıda Fatma? (Kazancı A. Üvey anne. 17)*

*Pastda nima qilib yuruvding Fotima? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 13)*

Yozuvchilar atayin shunday gap qurulishidan foydalanadi, chunki gapiryotgan paytimiz grammatik qoidalarga amal qilmasligimizni aks ettiradi. Biz ham aslida gapning kesimini har doim gapning oxiriga qo'ymasdan gap o'rtasida yoksh boshida ishlatamiz. Jonli nutqni o'quvchiga hisqildirish maqsadida qilingan bu ishni tarjimada to'g'rilab qo'yish unchalik ham yaxshi emas. Bu gapni *nima qilding pastda, Fotima?* Deb tarjima qilsak maqsadga muvofiq bo'lardi.

*Sana ne elin çocuğundan? (Kazancı A. Üvey anne. 17)*

*Birovning bolasi bo'lsa, senga nima, qizim? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 13)*

Biz bu gapni quyidagi tarjima qilishni ma'qul deb o'yladik: *sening nima ishing bor birovning bolasi bilan?*

Quyidagi gaplarni tarjimon asliga muvofiq tarjima qilingan deb olsak bo'ladi:

Ne getirdin bana baba. (Kazancı A. Üvey anne. 46)

*Nima olib keldingiz, menga, ota. ( Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 35)*

*Bırak beni... bırak beni.. (Kazancı A. Üvey anne. 75)*

*qo'ying meni, qo'yib yuboring. (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 57)*

*Nedir istedigin Fatma Hanım? (Kazancı A. Üvey anne. 63)*

*Nimani istaysız Fotimaxonim? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 48)*

Yozuvchi nima uchun aynan shu shaklda qahramonni gapirtirgan? Degan savol tug'ilishi tabiiy. Shunday ekan kaç yaşında başladın sigara içmeyi Adil Bey(Kazancı A. Üvey anne. 69) gapini tarjimasini *chekishni necha yoshingizdan boshlagansiz?* (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 53) deb emas, balki *necha yoshdan boshlagansiz sigaret chekishni, Odil Bey?* deb tarjima qilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Quyidagi gaplarni asli, tarjimasi va bizning taflifimizni berib o'tamiz.

*Ne yapıyorsun burada oğlum? ( Kazancı A. Üvey anne. 24)*

*Bu yerda nima qilyapsan ,o 'g'lim? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 20)*

Nima qilyapsan bu yerda o'g'lim.

*Baba, annem daha gelmedi, iyi olmadı mı daha? (Kazancı A. Üvey anne. 44)*

*Ota, onam nega kelmadi, hali tuzalmadimi? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari.34)*

*Ota, onam hali kelmadi, yaxshi bo‘lmadimi hali ham?*

*Ne bildin bizim geldiğimizi anne? (Kazancı A. Üvey anne. 58)*

*Kelganimizni qanday bildingiz ona? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 44)*

*Qanday bildingiz biz kelganimizni, ona?*

*Sevmiyor tuydun onu? (Kazancı A. Üvey anne. 66)*

*Yaxshi ko‘rmasmidengiz, sevmasmidengiz? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari.50)*

*Sevmasmidengiz uni?*

*Küs müsün bana? (Kazancı A. Üvey anne. 77)*

*Mendan xafamisiz? (Qozonchi A L. Eng sara asarlari. 58)*

*Xafamisiz mendan?*

### **Xulosa:**

Xulosa o‘rnida shularni ayta olamiz: personajlar nutqida gap qurulishiga amal qilmaslik, asosan, so‘roq gaplarda va his-hayajonli gaplarda kuzatilishi yoki nima deyishni bilmay qolgan hollarda uchrashi, tarjimon bunday gaplarning ko‘pgina qisini mohirlik bilan tarjima qilganini, personajlar nurqiga qo‘srimcha ma’no yuklash asarning badiiy qiymatini oshirishini, gap qurilishi qonun-qoidalariga amal qilmaydigan gaplarni to‘g‘rilab tarjima qilib ketishning unchalik to‘g‘ri emasligini va bularning barchasi yozuvchi uslubini tashkil qilishini aytsak bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari:**

1. Salomov G‘. Tarjima nazaryasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
2. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari (o‘quv qo‘llanma). – T.: 2014. 272 b
3. Eganova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi // Badiiy tarjima – do`stlik quroli (Maqolalar to`plami). – Toshkent, 2017. 33–34-betlar.
4. Kazancı A. Üvey anne. – İstanbul: Ensar Neşriyet, 2017. 232 b.
5. Qozonchi A L. Eng sara asarlari. – Toshkent: Book Media Nashr, 2020. 592 b.